

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

Guliston davlat universiteti

Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 6-13-guruh talabasi

To'htasinova Mohira

“O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan
tayyorlagan

Kurs ishi

Qabul qildi: Muzaffar Mamatqulov

Гулистон–2015 йил

Mavzu: *Ogahiy tarixchi va jamoat
arbobi*

Reja:

Kirish

1.Ogahiyning tarixchilikdagi faoliyati

2.Ogahiyshunoslar Ogahiy haqida

3.Ogahiyning tarixiy asarlari

Xulosa

Kirish

Yorqin iste'dodlarga boy mumtoz adabiyotimiz, madaniyatimiz tarixida Ogahiyning o'rni o'ta salmoqlidir. U talantli lirik shoir, iste'dodli tarjimon, zabardast tarixchi sifatida juda boy meros qoldirgan.

Alisher Navoiydan keyin o'zbek adabiyoti tarixida ijodining ko'lamdorligi jihatidan birorta adib Ogahiy bilan bellashaolmaydi. U yigirma ming misradan ortiq she'rlar, olti tarixiy asar, o'n to'qqiz tarjima asari qoldirgan. Shoirning ismi Muhammad Rizo bo'lib, "Ogahiy" uning adabiy taxallusidir. "Ogahiy" "ogoh" so'zidan olingan bo'lib, ziyrak, har narsadan xabardor ma'nolarini anglatadi.

Muhammad Rizo 1809-yil 17-dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida tug'ildi. Otasi Erniyozbek dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullangan. Erniyozbekning akasi esa mashhur shoir va davlat arbobi Shermuhammad Munis edi. Mutaxassislar fikricha, Erniyozbekning jiyanlari Muhammad Qilichbek "Rojih", Muhammad Ya'qubbek "Nozim" taxallusi bilan ijod qiladigan iste'dodli shoirlar edilar. Bo'lajak shoir mana shunday ziyoli, she'rparast kishilar davrasuda o'sdi. Qiyotda savodini chiqargach, Xiva madrasalarida o'qidi. Ilm va hunar o'rgandi. Biroq ko'p o'tmay, otasi vafot etadi. Yosh Muhammad Rizo uch yoshida otadan yetim qolib, zamonasining eng nodir kishilaridan amakisi Shermuhammad Munis qo'lida tarbiyalanadi, undan adabiy ta'lim oladi. Tinmay o'qiydi, mehnat qiladi, tevarak-atrofda, oilada, jamoat o'rtasida, ibtidoiy maktabda nimaiki ibratli ko'rinsa, ularni o'zlashtirishga harakat qiladi. Yaxshilarga yaqinlashib ulardek bo'lishga intiladi:

*Qadam aylabon ilm yo'lida bosh,
Hunar kasbida aylar edim talosh.
Ne tunlar menga xobi rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog'at edi.
Eturdim har jamoatqa o'zimni,
Ochib ibrat bila haryon ko'zimni.
Borining holidin bo'ldim xabardor.
Ayon ko'nglimda bo'lg'ay barcha asror.*

1829-yilda shoir va tarixchi, xonlikning bosh mirobi Shermuhammad Munis Xiva xoni Olloqulixon yonida Xuroson harbiy safarida edi. Safar davomida vabo kasaliga uchraydi va to'satdan vafot etadi. Xon yigirma yashar Muhammad Rizoni amakisi o'rniga mirob qilib tayinlaydi. Miroblik katta va ma'suliyatli vazifa edi. Xonlikdagi barcha suv ishlarini boshqarish uning zimmasida edi. Faqat miroblik emas, sekin-asta Munisning muarrix-tarixchilik vazifasi ham Ogahiy zimmasiga tushdi. U saroy muarrixi bo'lib qoldi. 1839-yilda Munis boshlab qo'ygan "Firdavs ul-iqbol" (Baxt bog'i) asarini davom ettiradi. Xiva xonligining 1825-yilgacha bo'lgan tarixini yozib tugatadi. 1844-yilda "Riyoziy ud-davla" ("Baxt-saodat bog'lari") kitobini yozib, xonlik voqealari tarixini o'z davri – 1843-yilgacha olib keladi.

1845-yildan Ogahiy boshiga ketma-ket tashvish tushadi. Bir tasodif bilan otdan yiqilib, oyog'i sinadi. Singan oyoq ishdan chiqib, shoir to'shakka bog'lanib qoladi. Uning ustiga xotini vafot etadi. 1857-yilda esa miroblikdan

iste'fo berishga majbur bo'ladi. Baxtsizliklar bilan yakkama-yakka qoladi. Shoir hayotidagi bu musibatlar uning she'rlarida aks etgan.

Qo'yung, yig'layki ushbu kun sevar yorimdin ayrildim,

Muruvvatlig', muhabbatlig' vafodorimdin ayrildim

deb boshlanadi shoir g'azallaridan biri. Boshqa bir she'rida esa, u "baxt yovar" (hamroh) bo'lgan, "jononi hamdam"lik qilgan "xush kunlar"ni qo'msaydi. Yana bir o'rinda: "Qorig'on chog'da g'amdin bo'lmayin ozod, man qoldim", deb – yozadi. Shunda ham u ijoddan to'xtagan emas. 1846-yilda **"Zubdat ut-tavorix"** ("Tarixlar qaymog'i"), 1847-1855-yillarda **"Jome ul-voqeoti sultoni"** ("Sulton voqealarining yig'indisi") tarixiy asarlarini yozdi, tarjimachilik bilan shug'ullandi. XIX asrning yigirmanchi yillarida **"Gulshani davlat"** va **"Shohidi iqbol"** ("Baxt shohidi") tarixiy asarlarini yozdi.

Ogahiy 1847-yilda vafot etdi.

1-reja

O'zbek xalqi qadim zamonlardan qo'shni mamlakatlar xalqlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarda bo'lib kelgan. Shunday aloqalar zanjirida tarjima adbiyotining ahamiyati katta bo'ldi. XIV asrdan o'zbek tarjima adabiyoti tarixining o'ziga xos yangi sahifalari ochildi. XIV asrda yashab, ijod etgan Sayfi Saroyi go'zal g'azallar yozish bilan birga, Shayx Sa'diyning "Guliston" asarini "Giliston bit-turkiy" nomi bilan tarjima qildi. Tarjima adabiyotining kuchayishida, ayniqsa, Qutbning xizmatlari tahsinga sazovordir. Unda bizgacha yetib kelgan "Xisrav va Shirin" dostoni ulug'

ozorboyjon shoiri Nizomiy Ganjaviy dostoning erkin tarjimasi va ayni crog'da o'zbek epic poeziyasining Navoiy davrigacha bo'lgan yirik yodgorligidir. Shundan so'ng Nizomiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish traditsiyasi davom etdi va rivojlandi. XV asrda Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror" asrini erkin tarjima qildi. Ogahiy esa, "Haft paykar" ("Yetti go'zal") dostonini nasriy yo'l bilan tarjima etdi. Ayniqsa, XVII-XIX asrlar o'zbek tarjima adbiyotida sarmahsul bir davr bo'ldi. Said Husan Xorazmiy eron shohi Zohir Kirmoniyning "Vomoq va Uzro" dostoni, shahrisabzlik Xiromiy "Chor darvesh", "To'tinoma", Valixoja Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe" asarining tarjimasini yaratdilar. Bu davrda o'zbek kitobxonlari forsiy tildan o'zbek tiliga tarjima qilingan doston, badiiy nasr, tarix-solnoma va boshqa turdagi asarlar bilan tanishdilar. XIX asr oxiriga kelib toshkentlik shoir va olim Almaiy mashhur hind masallari hamda rivoyatlar to'plami sanalmish "Kalila va Dimna"ni, Sidqiy Xondayliqiy arab ertaklari - "Ming bir kecha"ni o'zbek tiliga tarjima qildilar. Xorazmda Ogahiy, Bobojan Sanoiy, Komil Xorazmiy boshliq o'ziga xos tarjima maktablari vujudga keldi. Juda ko'p tarixiy, diniy-falsafiy, axloqiy-didaktik va boshqa asrlarning tarjimalari yaratildi. Ogahiyning o'zi 19 badiiy va tarixiy asarni nasrda, nazmda, ba'zan nasr va nazm aralash o'zbek tiliga tarjima etdi, bu sohada butun bir maktab yaratdi. Bular Nizomiyning "Haft paykar", Kaykovusning "Qobusnoma", hindistonlik adib Muhammad Vorisning "Zubdat ul-hikoyat", Xusayn Voiz Koshifiyning "Ahloqi Muhsiniy", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", "Yusuf va Zulayho", "Salomon va Absol", Hiloliyning "Shoh va gado" kabi nodir asarlaridir.

Ogahiy bu asarlar tarjimasidan ko'zlagan maqsadini "Turkiygo'y elim bahramand bo'lsin deb ixlos qalamini avroqi uzra chektim" tarzida

izohlagan. Bu asarlarning ko'plari o'zbek tiliga o'girilgan birinchi tarjimalar edi. Ogahiy tarjimalari tufayli o'zbek adabiyoti beqiyos darajada boyidi. Unga yangi mavzular, taimsollar, janrlar, uslub va ohanglar kirib keldi. U xoh nazmda bo'lsin, xoh nasrda bo'lsin tarjimaga asos bo'lgan asarga ijodiy yondashishga, unga qisman bo'lsa ham, tarixiy davrning, ma'naviy muhitning ruhini singdirishga, uslub va til jihatidan kitobxonga manzur etishga intildi.

Ogahiy ayniqsa o'z asarlarining didaktik yo'nalishiga, komil insonni tarbiyalashdagiahamiyatiga e'tibir berdi. Sharqning mumtoz adib va shoirlarining asarlari tarjimasiga ko'proq murojaat etganligi "Axloqi Muhsiniy", "Maxzan ul-asror", "Qobusnoma", "Guliston", "Bohoriston" kabi sharq badiiy didaktikasining nodir asarlarini saralab olganligi sgundan dalolat beradi. Shu bois, Ogahiy o'zbek tarjima adabiyotining asoschisi deb hisoblash mumkin. Hech qaysi millat adabiyotida lirik shoir va muarrix sifatida boy adabiy meros yaratishdan tashqari, shunchalar ko'p noyob asarlarning bir kishi tomonidan tarjima qilinishi hodisasi qariyb uchramaydi. Ogahiyning o'ta mashaqqatli ijodiy mehnatining bu jihatlari tarjimashunos va tasavvufshunos olim, professor Najmiddin Komilov "Bu qadim san'at" monofrafiyasida ancha keng tahlil etilgan. Ogahiy tarjimalari uning ham mazmun, ham badiiy jihatdan yuksak mavqega ega poetik asarlari kabi, milliy mafkuramizni qaror toptirish, yosh avlodni barkamollik, ma'naviy jihatdan go'zal insonlar qilib tarbiyalashda katta ma'rifiy-estetik ahamiyatga egadir.

Ogahiyning tarixiy fakt va ma'lumotlarga boy tarixiy asarlari XIX asr Xiva xonligi davridagi voqea-hodisalarni o'rganishda qimmatbaho

manbalardir. “Taviz ul-oshiqin” devoniga yozgan debochada Ogahiy tog’asi Shermuhammad Munis tomonidan yozilib, uning bevaqt vafoti tufayli tugallanmay qolgan “Firdavs ul-iqbol” asarina davom ettirib, tugallanganligini, Xorazmda Olloqulixon xukmronligi davri voqealariga bag’ishlangan “Riyoz ud-davla”, Rahimquliga “Zubdat ut-tavorix”, Muhammad Aminxon II, Sayid Muhammad hamda Muhammad Rahimxon II Feruz davri voqealariga bag’ishlangan tarix asarlari bitishga musharraf bo’lganini so’zlaydi. Ogahiyning tarixiy asarlari Xorazmda qariyb 60 yil ichida sodir bo’lgan voqealarning tarixiy-badiiy solnomasidan iborat. Bu asarlarda shoir va tarjimon Ogahiyning ijodkor, so’z ustasi sifatidagi mahorati o’z izlarini qoldirgan.

2-reja

1999-yil dekabr oyida, avval aytganimdek Ogahiy tavalludining 190 yilligi keng nishonlandi. Uning buyukligi, ma’naviyatimiz uchun qoldirgan o’lmas merosi to’laligicha namoyon etildi. Prezidentimiz Islom Karimovning Ogahiy yubileyi tantanalari ishtirokchilariga yo’llagan tabrigida Ogahiy adabiy va ilmiy merosining nihoyatda katta ahamiyati ko’rsatib o’tildi.

Yorqin iste’dodlarga boy mumtoz adabiyotimiz, madaniyatimiz tarixida Ogahiyning o’rni o’ta salmoqlidir. U tantanali lirik shoir, iste’dodli tarjimon, zabardast tarixchi sifatida juda boy meros qoldirgan. Shu sababli Ogahiy zamondoshlaridan Muhammadrahim Feruz, Ahmad Tabibiy, Muhammadyusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy kabi davrining taniqli ilm-madaniyat arboblari, shoirlari uning ta’rifida ajoyib fikrlar bayon etganlar.

Jumladan, Komil Xorazmiyning quyidagi misralarida Ogahiy shaxsi va shuhratiga xos jihatlar juda haqqoniy ifodalangan:

Ulki ogohlarning ogohidir,

Fahmu donnish si pehrining mahidur.

So'zi ortiqdurur guhardin ham,

Fazlu donishda olam ichra olam.

Ogahiy zamonidan boshlab uning ko'pqirrali ijodiga, tarjima va tarixiy asarlariga qiziqish so'nmay davom etib keldi. Mashhur sharqshunos olimlardan Bartold, Samoylovich, Yakubovskiy, Yahyo G'ulomov, Q. Munirov, kabilarning tarixshunoslikka; V. Zohidov, V. Abdullayev, G'. Karimov, S. Dolimov, R. Majidiy, F. G'anixo'jayev, B. Valixo'jayev, N. Jumaxo'ja kabilarning adabiyot tarixiga; G'aybulla as-Salom, J. Sharipov, N. Komilivning tarjimashunoslikka oid asarlarida Ogahiy ilmiy-adabiy faoiyatining muhim jihatlariga fikrlar bayon qilgan.

1960-yili uning "Ta'viz ul-oshiqin" devoni nashr etildi. 1971-1980 yillar ichida "Ta'viz ul-oshiqin" devoni, tarjima va tarixiy asarlaridan namunalarni o'z ichiga olgan 6 jildlik asarlari chop etildi.

1989-yili bu ulug' shoir va madaniyat arbobining 180 yilligi, 1999- yili esa, 190 yilligi keng nishonlandi. O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining maxsus qarori asosida shoir nomini adabiy lashtirish bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi.

Adabiyotshunos F. G'anixo'jayev "Ta'viz ul-oshiqin"ning tanqidiy matnini tayyorladi. Nusratullo Jumaxo'jayev va Abdurashid Abdug'afurov kabi olimlarimiz Ogahiyning tarjimon, shoir, muharrir sifatidagi faoliyatini chuqurroq o'rganishga bag'ishlangan ilmiy asarlari e'lon qildilar.

Juda bir muhim yangilik shundan iborat bo'ldiki, Qiyot qishlog'ida yashovchi adabiyot muxlislaridan Ogahiy yoshligida o'zi tartib bergan majmua-bayoz topildi.

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809-yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida dunyoga keladi. Uning otasi ham, bobosi ham xonlikdagi obro'li mansablardan biri – miroblik xizmatida bo'lib kelgan. Bu xizmat o'z navbatida uning amakisimashhur shoir, tarixcigi va tarjimon Shermuhammadga, so'ng Muhammadrizoga o'tgan. Demak, Ogahiy miroblar sulolasining vakillaridan biridir. Biroq bu xizmatda ishlagan bo'lsa-da molu mulk to'plashga intilmagan, xokisor, kamtarona yashash yo'lini tanlagan. 1829-yildan 1857-yilgacha miroblik mansabida bo'lgan Ogahiy otdan yiqilib, qattiq shikastlanadi va iste'foga chiqishga majbur bo'ladi. Umrining oxirigacha butunlay ijodiy ish bilan mashg'ul bo'ladi. Uning "Ta'viz ul-oshiqin" devonidan boshlab hamma asarlari saroydan, mansabdan forig'bo'lgan yillardagi ijodi mevalaridir.

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy "Ta'viz ul-oshiqin" nazmiy devoni bilan mumtoz she'riyatda hazrat Navoiyning munosib izdoshi ekanini, o'z ta'biri bilan aytganda, "fasohat va balog'at bobida nodir va so'z rishtasig'a maoniy javohirni nazm etarga qodir" ekanini isbotladi. Unsurulma'liy Kaykovus, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Nizomiy Ganjaviy, Husayn Voiz Koshifiy, Zayniddin Vosifiy singari buyuk

mutafakkirlarning fors-tojik tilida ijod etilgan yigirmadan ortiq nodir asarlari tarjimasi orqali ona tilimizning ifoda imkoniyati nechog'liq boy ekanini amalda nomoyon qildi. Bu ulug' mutafakkir nomi nainki mumtoz shoir va mahoratli mutarjim, shuning barobarida, XIX asr Xorazm kechmishiga doir nodir manbalar hisoblanmish memuar-qissalar – badiiy-tarixiy asarlar muallifi sifatida ham ma'lum va mashhurdir.

3-reja

Ogahiy XIX asrda hukmfarmonlik qilgan xorazmshohlar saltanati davri voqealariga bag'ishlangan besh memuar qissa yozdi. Olloqulixon hukmronligi davri (1825-1843) to'g'risidagi “Riyozi-d-davla”, Rahimqulixon saltanati voqealari (1843-1846) tasvirlangan “Zudatu-t-tavorix”, Muhammadaminxon (1846-1854), Sayyid Abdullohxon (1854) va Qutlug'murodxon (1855) hukmronlik yillaridagi murakkab va ziddiyatli hodisalar haqidagi “Jome'u-l-voqeoti sultoniyy”, Sayyid Muhammadxon zamoniga (1856-1865) doir “Gulshani davlat” hamda Muhammad Rahimxon soniy – Feruz davri (1865-1910) vasf etilgan “Shohidu-l-iqbol” kabi asarlar shular jumlasidandir. Bular qatoriga Shermuhammad Munis yoza boshlagan “Firdavsul-iqbol”ni davom ettirib, badiiy-tarixiy nasrning mukammal namunasi sifatida yakunlanganini ham qo'shsak, Ogahiyning milliy she'riyatimiz va tarjima san'ati bilan bir qatorda o'zbek memuar-qissachiligi rivojiga qo'shgan hissasi ham nechog'liq ulkan ekani ayon bo'ladi.

Ulug' mutafakkirning adabiy-tarixiy asarlarini tarixiy manba sifatida tadqiq etgan rus olimi akademik V. V. Bartold bunday yozgan edi: “Munis

va Ogahiy tomonidan yaratilgan **adabiy-tarixiy asarlar** qanchalik kamchilikka ega bo'lmasinlar, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixi bo'yicha yozilgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi".

Olimning ayrim fikrlariga alihida e'tibor qaratish zarurati seziladi. Birinchidan, u Ogahiyning tarixiy mavzudagi asarlarini sof tarixiy asar sifatida talqin etishdan saqlangan, ularning adabiyotga daxldorligini e'tirof etgan. Olimning ularni **adabiy-tarixiy asarlar** deyishi buning tasdig'idir. Ikkinchidan, bu turdagi asarlarda "tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi" masalasiga alohida urg'u berilgan. Binobarin, bu asarlarda tarixiy voqealar tasvirlanganini hamda faktik materiallar ko'p bo'lsa ham, ularni bayon etishusuli adabiy ekanini alohida ta'kidlash kerak.

O'zbek va umuman sharq badiiy-tarixiy nasri Ogahiygacha ham ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi ayon. Rabg'uziy, Mirxond, Xondamir, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Shermuhammad Munis kabi buyuk adiblar nasriy merosi buning dalilidir. Bu ijodkorlar qalamiga mansub asarlar Ogahiyning badiiy-tarixiy nasri uchun o'ziga xos tajriba maktabi bo'lganini ta'kidlash kerak.

O'zbek badiiy-tarixiy nasri taraqqiyot bosqichlarini Ogahiyning "Shohidu-l-iqbol" asari misolida o'rgangan manbashunos Nafas Shodmonov jahon adabiyotida tarixiy nasr mualliflari badiiy adabiyot rivojida sezilarli ijobiy rol o'ynagani, Yevropa adabiyotshunosligida antik tarixnavislik zamonaviy nasr uchun katta salmoqqa ega syujetlar, badiiy ishlangan

obrazlar taqdim etish bilan birga uslubiy maktab rolini o'ynaganligi haqida yozib, grek tarixnavisi Plutarx, ingliz xronistlari R. xolinshed, G. Xoll kabilarning merosi Shekspir, Russo va boshqa ko'plab adiblar ijodiga ta'sir o'tgazganini bunga misol tariqasida keltiradi. Xitoy adibi Sim Tyanning "Tarixiy bitiklar"i, "Umr daftari" kabi asarlar tarixnavislikninggina emas, balki kelajak adabiy nasrning taraqqiyoti tamoyillarini belgilashga ham xizmat qilganini, At-Tabariy va ibn Xaldun merosi arab va ajam tarixnavislari uchun namuna bo'lganini ta'kidlaydi.

Shu paytga qadar asosan tarixiy asarlar sifatida baholanib kelgan Ogahiy badiiy-tarixiy nasrini maxsus o'rgangan akademik Vohid Abdullayev bu asarlarni "tarixiy-badiiy proza" namunalari deb atasa, ustoz manbashunoslar – G'ulom Karimov va Subutoy Dolimov ularning "badiiy-tarixiy asr tarzida qimmatli" ekaniga urg'u beradilar. Professor Najmiddin Komilov esa Ogahiyning tarjima asarlari tahlili misolida milliy adabiyotimiz tarixida yaratilgan "qissa hikoyalar (povest)"larga e'tibor qaratadi. Binobarin, Ogahiyning tarixiy mavzudagi barcha nasriy asarlari, jumladan, tadqiqotimiz manbai bo'lgan "Zubdatu-t-tavorix" ("Tarixlar sarasi") ham birinchi navbatda badiiy, undan keyingina tarixiy asar hisoblanadi.

Muhim tarixiy ma'lumotlar berilganligiga qaramay, uslubi, janr xususiyatlari, ifoda tarzi va boshqa belgilariga ko'ra "Zubdatu-t-tavorix"ni ham, Ogahiy badiiy-tarixiy nasrining boshqa namunalari ham tarixiy ilmiy asarlar sifatida baholab bo'lmaydi. Bu asarlarni adabiy manba sifatida o'rganish esa adabiyotshunoslik hamda uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan manbashunoslik va matnshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy xulosalar berishi aniq.

Ma'lumki, Ogahiy badiiy-tarixiy asrlari haqida amerikalik olim E. Ovorsning "O'zbek adabiy siyosati" kitobida tahliliy fikrlar uchraydi. E. Ollvors tadqiqotidan keyin oradan ko'p yillar o'tib, yana bir amerikalik olim Yuriy Bregel mumtoz shoir va muarrix Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiy qalamiga mansub "Firdavsu-l-iqbol"ning dastlabki ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi, keyin esa asarni ingliz tiliga tarjima qilib, ikki jild holida nashr ettirdi.

Bundan tashqari, Ogahiy badiiy-tarixiy nasri yuzasidan rossiyalik mutaxassislar, shuningdek, o'zbek olimlarining tadqiqotlari e'lon qilingan. Shu jumladan, 1997 – 2002 yillar davomida ushbu satrlar muallifining asar gaqidagi kuzatishlari maqolalar tarzida chop etilgan. Biroq asar yuzasidan maxsus ilmiy tadqiqodlar yaratish – kelajakning ishi.

Ma'lumki, o'tgan asrning 70-yillari oxirida ustoz olimlar G'ulom Karimov va Subutoy Dolimov sa'y-harakatlari bilan Ogahiy asarlarining olti jildligi nashr etildi. Badiiy-tarixiy asarlari jamlangan beshinchi jildda "Zubdatu-t-tavorix"dan" sarlavhasi ostida asardan kichik bir parcha e'lon qilindi. Biroq Abulg'ozzi Rahimquli`Muhammad Bahodirxon saltanati davriga bag'ishlangan bu memuar-qissaning ilmiy izohlar bilan ta'minlangan to'liq matnini chop etishimkoni bo'lgan emas. Tabiiyki, o'sha kezlari asarning mukammal nashrini amalga oshirish to'g'risida orzu ham qilib bo'lmas edi. Chunki badiiy-tarixiy nasrning bu yuksak namunasi mohiyatan o'sha davrdagi hukmron mafkura siyosatiga, uning tutumiga tamomila zid edi. Unda tarixiy voqelik betakror badiiyat bilan tasvirlagan, hukmdor ajdodlarimiz johilligi emas, fazilatlarini xususida baxs yuritilgan edi. Ta'kidlash joizki, uzoq muddat davomida "Zubdatu-t-tavorix" tadqiqotchilar

nazaridan chetda qolib ketdi. O'tmish adabiy-tarixiy merosni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham kuchaygan bugungi kunda, zamondoshlarimizni, ayniqsa, yosh avlodni mazkur asarning asl mohiyatidan xabardor qilish, buning uchun esa asarning ilmiy izohlar bilan ta'minlangan mukammal nashrini amalga oshirish hayotiy zaruratdir. Binobarin, asardan e'lon qilingan parcha, ta'kidlanganidek, o'quvchiga uning mazmun-mohiyati haqida to'laqonli tasavvur beraolmaydi. "Zubdatu-t-tavorix"ning ilmiy izohlar, lug'at va ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan asl qo'lyozma manba asosidagi to'liq tabdili ehtiyoj samarasi ekanini ta'kidlash kerak.

Bizgacha "Zubdatu-t-tavorix"ning besh qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ulardan biri Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutida E 6 – V (590 ob) ashyo raqami ostida, yana biri Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasida T.n.s. – 22 ashyo raqami bilan, uchasi O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Mazkur qo'lyozmalar bilan shug'ullangan matnshunos Fathulla G'anixo'jayev ma'lumotlariga ko'ra, ulardan Ogahiy hayot paytida ko'chirilgani Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutida E 6 – V (590 ob) raqami bilan saqlanayotgan manbadir. Darhaqiqat, qo'lyozma qora siyohda nastaliq xati bilan O'rta Osiyo qog'oziga ko'chirilgan, matn jadval ichiga olingan.

"Zubdatu-t-tavorix" ikki qismdan iborat. Asarning birinchi qismida Rahimqulixonning tug'ilishi, ilm o'rganish va harbiy mahorat egallash yo'lidagi sa'y-harakatlari, shuningdek, bo'lg'usi xonnig Hazorasp hokimi sifatida olib brogan faoliyati saj'li nasrda go'zal badiiy shaklda mufassal

bayon qilinadi. Sarning ikkinchi qismi Rahimqulixonning saltanat taxtigi o'tirgan kundan to vafotiga qadar sodir bo'lgan voqealar tasviriga bsg'ishlangan.

“Zubdatu-t-tavorix” nainki adabiy manba, asardan geografiya, toponimiya haqida ham qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin. Ilmiy nashr talabiga ko'ra, “Zubdatu-t-tavorix” uchun geografik nomlar, shaxs nomlari va etnik atamalar ko'rsatkichlari tuzilgan.

Ogahiyning o'z zamonasining mumtoz lirik shoiri sifatidagi xilma-xil mavzu va janrlardagi she'rlari 1852-yili tartib berilgan “Ta'viz ul-oshogin” devonida jamlangan. Agar biz Ogahiyning 1874-yilgacha hayot bo'lganligi hamda saroydagi miroblik hizmatidan forig' bo'lib, asosan ijodiy ish bilan shug'ullanganligini e'tiborga olsak, shoir 20 yillar davomida yana qanchadan-qancha lirik she'rlar yozganligi, binobarin, Navoiydan keying o'zbek adabiyotida eng sermahsul lirik shoir sifatida nomoyon bo'lganiga ishonch hosil qila olamiz. “Ta'viz ul-oshiqin” qo'lyozmalari 1882 va 1905 yillari litografik usulda bosmadan chiqarilgan. Bizning davrimizda esa, biroz qisqartirilgan holda 1960-yili nashr etildi. Devondagi she'rlar Ogahiy lirikasining hammasi bo'lmasa ham hajman salmoqli, janr jihatidan boydir. Unda 500 ga yaqin g'azal, ruboiylar, 89 muxammas, mustazodlar, 19 qasida, 5 musaddas, 4 musamman, 4 masnaviy, 8 qit'a, 10 tuyuq, 4 chiston, 20 ta'rix she'r, 4 tajriband kabi 13 xil lirik janrdagi asarlar jamlangan. Devon adog'ida “Ash'ori forsiy” nomi bilan keltirilgan 1300 misra she'r ham bor. Shoir o'zining bir musammanida lirik she'rlarining yetakchi janrlarini sanab o'tgan.

Ogahiy devon tartib berish va uni nomlashda ham Shermuhammad Munis yo'lidan bordi. Munis va Ogahiy oralaridagi ustodu shogirdlik ko'p qirralidir. Ularning munosabatlari amaki-jiyanlikdan, oilaviy yaqinlikdan ijodiy yaqinlik tomon o'sib borgan. Munis va Ogahiy adabiy merosiga nazar tashlasak, dastavval ularning devonlari orasidagi o'xshashlik e'tiborimizni tortadi.

Shoir ijodida uning "Ogohnoma" qasidasi ham salmoqli o'rin tutadi. Bu asar Muhammad Rahimxoni Soniy, ya'ni Feruz Xiva taxtiga chiqishi munosabati bilan bitilgan edi. Qasida shohga tabrik va otasining o'limi bilan unga hamdardlik bilan boshlanadi. Shoir bu dunyoga kelgan kishi ketishi shart ekanligini ko'plab misollar asosida tasvirlab, yosh xonga bardosh tilaydi. U yurt hukmdorlarini g turli xil ekanligini quyidagi yo'sinda bildiradi:

Qilib ba'zi lutf-u karam oshkor,

Vale ba'zi zulm-u sitam ixtiyor.

Yetib ba'zidin elga rohat base,

Vale ba'zidin ranj-u mehnat base.

Qilgan ishiga yarasha ayrimlariga rahmat, ba'zilariga esa la'nat aytilgani tasvirlanadi. Shoir shoh ham qanday bo'lishidan qat'iy nazar boshqa oddiy odamlar singari yo'qlikka ketishga mahkum, binobarin, o'zidan yaxshi nom qoldirishi kerak deb hisoblaydi. Buni yosh xonga anglatish uchun dunyo tarixidagi mashhur hukmdorlarning ko'pchiligini sanab, ulardan nima qolganligi haqida mulohaza yuritadi. Ogahiy dovrug'I olamni tutgan hukmdorlar to'g'risida so'zlar ekan, Amir Temurga alohida

hurmat bilan to'xtaladiki, bu hol uning xolis olim, kengfe'l shoir ekanligini ko'rsatadi. Negaki, ayrim xorazimlik tarixchilar o'sha paytlarda Temurbekning ishlariga noxolislik bilan yondashar edilar. Ogahiy birgina chizig'i bilan Temur qiyofasidagi asosiy sifatni ko'rsatib berdi. Chindan ham Sohibqiron dushmanga qiron kerltirgan hukmdor edi. Shoir Temurday jahongirlar ham o'tib ketadigan vafosiz dunyoda marhamat kutib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Shoir falakning bevafoligi, tayinsizligi haqida so'xlay turib, bildirmaygina, umuman, odamlar, xususan, saroy a'yonlari to'g'risida fikr bildirishga o'tib ketadi. Uning vafo va hayo borasidagi fikrlariga qo'shilmay bo'lmaydi. Shuningdek, bunday kimsalar xoh boy, xoh kambag'al bo'lsin ulusga sitam yetkazishi ham ayon. Shu bois hukmdor o'z atrofiga insofli odamlarni yig'ishi kerak.

Ogahiy saltanat bergan imkoniyatlardan vaqtida, to'g'ri foydalanish kerakligini aytadi.

Shoir saltanat ishi g'oyat og'ir, uning azob-u mashaqqatlari ko'pligini aytib, yosh xonni ogohlantiradi. Ayni vaqtda "belini bog'lash" lozimligini ham ta'kidlaydi. Negaki, shohlik Xudoning marhamati va ezgu ishlar qilishning imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. U saltanat ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish uchun qilinishi shart bo'lgan 22 sifatni va saltanatni tanazzulga olib boradigan 18 illatni ham ko'rsatib beradi.

Ogahiy boshqa qasidago'ylar singari yosh hukmdorni maqtab, xushomad tulporini maydonga surmaydi. Balki yurt boshqarish yuzasidan aniq va foydali o'gitlar beradi. Asarning badiiy xususiyati ham e'tiborga molikdir.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ogahiyning boy va mazmundor ijodiy merosi adabiy – madaniy tariximizning yorqin sahifalaridandir. Shoir she'riyati hali hanuz ijodkorlarimiz uchun juda katta ibrat va saboq maktabi bo'lib keladi. Tarjimalari bugungi kunda ham qayta – qayta chop etilib, xalqimizni dunyo adabiyotining ko'rkam namunalari bilan oshno qilishda o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Tarixiy asarlari esa, o'sha davrdagi Turkiston tarixini, ijtimoiy – madaniy turmushini o'rganishda, o'sha zamonlarning yashash tuzumi qandayligini o'rganishda mihim ahamiyatga ega. Sinchkov va salohiyatli tarixchi, iste'dodli shoir va mohir tarjimonning o'z zamonasi haqidagi qarashlari chor Russiyasi bosqini bilan yakun topgan xonliklar tanazzulini yaqinroqdan anglashga yordam beradi va yordam berib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- ✓ *RAHMONQUL ORZIBEKOV*
“O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI”
- ✓ *MUHAMMAD RIZO OGAHIY*
“ZUBDATU-T-TAVORIX”
- ✓ *BEGALI QOSIMOV, BOQIJON TO'XLIYEV,*
QOZOQVOY YO'LDOSHEV “ADABIYOT”
- ✓ *INTERNET MA'LUMOTLARI*